



ALISHER NAVOIY SO‘Z HAQIDA

Azimova Ziyoda Ergashevna
Artikova Muhayyo Botiraliyevna
Qodirov Valijon Abdurahmanovich
Хасанов Шаробидин Азамович
Муқаддас Тожибоева
Абдурахимовна

Andijon davlat pedagogika instituti
o‘qituvchilari

Annotasiya. Maqolada Navoiy ijodining millat tarixi, madaniyati va adabiyotida tutgan o‘rni, asarlarning ma‘no qatlamliligi to‘g‘risida fikr yuritilgan. So‘z mavzusi adib ijodi alohida o‘rin tutib, badiiy-estetik qarashlarining ifodasi o‘laroq talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: turkiy adabiyot, “Xamsa”, botiniy mazmun, so‘z talqini, to‘rt unsur, badiiy mahorat.

Annotation. The article examines the role of Navoi creativity in the history, culture and literature of the nation, the semantic layering of works. The theme of the word was interpreted as an expression of artistic and aesthetic views, occupying a special place in the poet's work.

Keywords: Turkic literature, “Khamsa”, internal content, interpretation of words, four elements, artistic skill.

Butun turk dunyosi Alisher Navoiyni “shamsul millat” – millat quyoshi deb hamma davrlarda e‘zoz bilan tilga oladi. Butun umrini turkiy til mavqeini ko‘tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag‘ishlagan bobokalonimiz bu e‘tirofga to‘la-to‘kis munosib va haqlidir. U haqidagi biografik ma‘lumotlar, yozmishlarining deyarli barchasi to‘liq saqlanib qolgan. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq rivoyat va afsonalar ham talaygina. Chunki odamlar o‘zlariga va kelgusi avlodga yashash tarzi, qilmishlari ibrat, aytmish va yozmish so‘zlari haqiqat bo‘lgan zotlar to‘g‘risida ham hurmat, ham hikmat ma‘nosida mana shunday og‘zaki ijod namunalarini to‘qib oladilar.

Ilmiy nashrlarda Navoiy ijodi turli aspektlarda tadqiq qilinmoqda. Ularda mutafakkirning hayot yo‘li, ijodining ahamiyati, millat tarixida tutgan o‘rni sharhlanmoqda. Aksar hollarda Navoiyning shuhratini uning “ko‘p va xo‘b” yozganligi bilan sharhlaydilar.

Adabiyotimiz tarixiga nazar solsak, Boburga qaraganda bir necha bor katta ijodiy merosga ega shoirlar bor, lekin Boburning shuhrati, ijodkor sifatidagi e'tirofi ulardan bir necha bor baland. Demak, gap miqdorda emas, asarlarining mazmuniy salmoqdorligidadir.

Agar Navoiy ijodi turkiy adabiyotning cho'qqisi desak, "Xamsa" Navoiy ijodining gultojidir. Bu asar orqali Navoiy ijodining qudrati, uning adib sifatidagi dahosi namoyon bo'lgan.

Shu kungacha "Hayrat ul abror" falsafiy-didaktik, "Farhod va Shirin" ishqiy-sarguzasht, "Layli va Majnun" g'amgin sevgi qissasi, "Sab'ai sayyor" shohlik va oshiqlikning muvofiq bo'lmasligi, "Saddi Iskandariy" odil shoh to'g'risidagi qissalar sifatida talqin etib kelindi. Bu albatta zohiriy mazmunga mos va to'g'ri talqindir. Lekin asosiy mohiyat, ya'ni adibning asosiy maqsadi bu ertaknamo, afsona libosli, asarlardagi botiniy mazmunda – dostonlar tagma'nosida ifoda etilgandir.

Men xastaki bu raqamni chektim,
Tahriri uchun qalamni chektim.
Yozmoqqa bu ishq jovidona,
Maqsudim emas edi afsona.
Mazmunig'a ruh bo'ldi mayli,
Afsona edi aning tufayli.
Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.

Shu ma'noda Navoiyning asarlaridagi so'z haqidagi qarashlari to'g'risida so'z yuritsak.

Xoliq egamiz bizlar uchun behisob moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratgan. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida ular orasidagi eng oliy ne'mat, shubhasiz, bizning inson bo'lib yaralganimiz ekanligiga urg'u beradi. Hech bir kishi o'ziga berilgan insonlik ne'matini boshqa yaratilqlar qismatiga almashmasa kerak. Inson borliqning gultoji, sababchisi. Mutafakkir shoir ta'biri bilan aytganda: "Ganjing aro naqd farovon edi, Lek boridin g'araz inson edi". Inson aziz va mukarram qilib yaratildi. Shoir Yaratganning bu marhamatini shukronalik bilan quyidagacha e'tirof etadi:

Koni hayvoni, agar xud nobot,
Har biri bir gavhari oliysifot.
Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading .

Lekin insonning boshqa jonzotlardan farqlanishi, uning azizligi, aql atalmish gavharning mavjudligi so'z tufayli ekanini Navoiy alohida ta'kidlaydi:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin .

Shu bois Navoiy so'zga yuksak ehtirom bilan qaraydi. Turli janrdagi asarlarida so'zni madh etadi. "Gavhar" sayqal berilgan olmos hamda umuman qimmatboho toshlar ma'nosini bildiradi. Bundan dunyodagi barcha qimmatbaho toshlarni yig'ib kelinsa ham so'zning qiymatiga teng bo'la olmaydi degan tagma'no borligi sezilib turadi.

To'rt sadaf gavharining durji ul,

Etti falak axtarining burji ul.

To'rt sadaf deganda, bu baytda borliqning asosini tashkil etuvchi to'rt unsur: er, havo, suv, o't nazarda tutilgan. Bu unsurlar sadafga - qimmatbaho marvaridlar yig'iladigan chig'anoqqa bejiz o'xshatilayotgani yo'q. Chunki mazkur unsur (element)larning har biriga Yaratgan tomonidan bizga ma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lmagan ko'plab xossalar, fazilatlar jo qilingandir. So'z esa ana shu unsurlarning to'rtalasi ham solingan qutichasi (durji), shuningdek, u etti falak yulduzlari paydo bo'ladigan burj hamdir. Demak, so'z butun borliq – er va koinotdagi barcha narsalarning asosi hisoblanadi. Ta'rifni go'zal tashbih(o'xshatish), shoirona mubolag'a(giporbola)ga yo'yilishi mumkin. Lekin bu ta'riflar zamirida so'z haqidagi islomiy haqiqat yotadi. Keyingi baytlarda Navoiy dunyoni bir bog'chaga, borliqdagi yaratilarni esa "toza gul"ga mengzaydi. Bu "toza gul"lar "azal tog'i" (ilohiyot)dan esgan nasim tebratishidan ochilgan (yaratilgan)dirlar. Bu misralar orqali borliqning yaratilishiga ishora qilinmoqda. Avvalda bo'shliqqa qarata "Kun" (arabcha "yaryl" yoki "bo'l") deya xitob qildi va ana shu bir so'zdan yuqorida zikr qilingan butun borliq paydo bo'ldi.

Dahri muqayyad bila ozodasi,

Borcha erur "kof" ila "nun" zodasi.

"Kun" so'zi arab alifbosida "kof" va "nun" harflaridan iborat. Dunyodagi bir-biriga bog'liq (muqayyad) va bog'liq bo'lmagan (ozoda) narsalarning bari shu "Kun"ning mahsulidir. Demak, so'z ilohiy qudrat, ilohiy iroda(xohish) jo qilingan ibtido(nachalo)dir. Dunyodagi inson zoti, jonivorlar, jonsiz narsalar, koinotdagi zarradan to ulkan sayyoralargacha shu bir so'zdan yaratilgandir. Shu bois, ilgari aytilganidek, er osti va usti boyliklari timsoli bo'lmish qimmatbaho toshlar uning qiymatini belgilay olmaydi. Chunki bu toshlar so'z tufayli yaratilgan minglab, millionlab foniy(o'tkinchi) narsalarning bir bo'lagi xolos. So'z ayni paytda inson hayoti, uning borliqdagi bebaho gavharidir. Shoir bu haqiqatni shunday ifodalaydi:

Jon o'lub ul ruh aning qolibi

Kim, tanida ruh aning tolibi.

Tanning tirikligi ruh (jon) tufayli ekanligani bilamiz. Jonning qolibi esa tana, tana tirikligi ruh bilandir. Navoiy so'zni ruhning joni deb tavsiflaydi. Ya'ni ruh, tananing joni bo'lsa, ana shu jonning joni so'z ekan. Tana ruhga muhtoj, u bilan tirik bo'lganiday, ruh so'zga talabgordir, jonning tirikligi so'z bilandir. Navoiy so'zga shunday yuksak maqom beradi, so'zga buyuk hurmat va ehtirom bilan qaraydi. "Insonni so'z ayladi judo hayvondin" der ekan, mutafakkir shoir kishi so'zlay bilish iqtidori bilangana emas, balki so'zni his etishi, uni qanday tasarruf eta bilishi (qo'llay olishi) bilan ham hayvondan farq qilishini nazarda tutadi. Chunki so'z bilan o'lik tanga jon bag'ishlash mumkin ("So'zdin o'likning tanida ruhi pok") yoki aksincha ("Ruh dog'i tan aro so'zdin halok"). Axir insonlararo mehr-muhabbat, do'stlik ham, urush-adovatlar, kelishmovchiliklar ham so'z tufayli emasmi? Navoiy shuning uchun bizni so'zga, uning ilohiy maqomiga xos va mos munosabatda bo'lishga chaqirdi. Bizning vazifamiz esa ana shu oddiy va buyuk haqiqatni yosh avlod tushunchasiga singdirishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Adabiyotlar ro'yhati

1. YO'LDOSHEV, Q. O. Z. O. Q. B. O. Y., et al. "Adabiyot." *Toshkent-2019*.
2. Qodirov, Valijon. "Reflections on the formation of reflexive abilities in preschool education." *Science and innovation* 2.B11 (2023): 150-153.
3. Kadirov, Valijon, and Dildora Abdullajonova. "FICTION IS A FACTOR IN THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION AND SPIRITUALITY IN CHILDREN." *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 2.3 (2022): 124-127.
4. Хасанов, Шаробидин Азамович. "ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБУЧЕНИЯ." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE*. 2018.
5. Ibraimov, X., Z. Azimova, and Z. Otaboeva. "Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community." *Science and innovation* 2.B12 (2023): 108-113.
6. Азимова, Зиёда Эргашевна. "Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни." *Современное образование (Узбекистан)* 2 (2018): 26-35.
7. Artikova, M. "DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS." (2021).
8. Artikova, Muhayo Botiraliyeva. "Experience In Developing Entrepreneurship Skills In Foreign Countries." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.7 (2019): 250-255.
9. Artikova, Muhayyo Botiraliyeva. "PECULIARITIES OF METHODOLOGICAL WORK IN PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL." *Science and Education* 2.1 (2021): 297-300.
10. Artikova, M. B. "THE FACTORS OF BRINGING CHILDREN UP IN THE MOOD OF MATERIAL AND SPIRITUAL INTEGRATED LIFE IN THE FAMILY (AS AN EXAMPLE OF PRIMARY SCHOOL AGE)." *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука* 6 (2018): 269-272.
11. Tojiboeva, Muqaddas, Nargiza Sattarova, and Nazokat Qanoatova. "Tradition In Abdulla Avloni's Poetry." *JournalNX* 7.11 (2021): 166-171.
12. Таджибаева, Мукаддас Абдурахимовна. "Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии." *Проблемы востоковедения* 2 (56) (2012): 53-58.
13. Tojiboyeva, Ffd MUQADDAS, and Vositov Shavkatbek. "FOLLOW-UP, STABILITY, AND ARTISTIC DISCOVERY IN JADID LITERATURE." *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology* 17.6 (2020): 14576-14581.
14. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "TA'LIMIY O 'YINLAR MTT VA OILA HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH VOSITASI SIFATIDA." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 87-93.
15. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "EKOLOGIK ONG VA AXLOQNING IJTIMOIIY-EKOLOGIK MADANIYATNI

RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 94-100.

16. Хасанов, Шаробидин, and Муқаддас Тожибоева. "ЖАДИДЧИЛИК ДАВРИ АДАБИЁТИДА МАЪРИФАТПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 101-106.

17. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "Pedagogik kadrlarni tayyorlashda sun'iy intellekt asosida interaktiv o'quv muhitini tashkil etish." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 107-112.

18. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "MTTDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH VA BOLALAR NUTQINI O'QITIRISH YUZASIDAN MUHOHAZALAR." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 113-117.